

## **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish**

Nafisa Azamatovna Boltayeva  
Vobkent pedagogika kolleji  
Sadoqat To'liqin qizi Abdurahmonova  
Vobkent tuman 11-DMTT

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xosligi va tashkil etishning asosiy maqsadi hamda yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashdagi beqiyos o'rini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan. Shuningdek MTTlarda faoliyati yo'lga qo'yilgan "Zumradoylar davrasi" to'garagi haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, faoliyat, jamiyat, milliy qadriyat, milliylik, an'ana, mafkura, milliy meros

## **Organization of spiritual and educational work in preschool educational organizations**

Nafisa Azamatovna Boltayeva  
Vobkent Pedagogical College  
Sadokat Tolkin girl Abdurahmanova  
Vobkent district 11-SPO

**Abstract:** In the article, the originality and main purpose of organization of spiritual-educational activities and events in preschool educational organization and its incomparable role in raising a highly moral and well-rounded person are analyzed from a scientific and theoretical point of view. Also, general information about the "Zumradoy circle" circle, which has been established in MTTs, is given.

**Keywords:** Spirituality, spiritual education, activity, society, national value, nationality, tradition, ideology, national heritage.

Bilamizki, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot yo'lida shakllanib kelgan milliy madaniy boy meros xazinasi, milliy qadriyatlar - milliy ma'naviy, madaniyati mavjud. O'z ma'naviyatini chuqur anglash esa millatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi albatta. Bu kabi milliy o'ziga xosliklar inson hayotining barcha jabhalarida, millat

madaniyatida, tilida, dinida, yashash, ishlashda hamda urf-odatlarida, rasm-rusumlarida, bayramlarida, sayillarida o'z ifodasini topadi.

Mamlakatimizda milliy ma'naviy, madaniyati yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida saqlanib kelayotgan an'ana va qadryatlarni targ'ib-tashviq etish, kelgusi avlodga butunligicha etkazib berish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Respublikamiz Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarorida "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini smarali tashkil etish belgilandi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bu– jamiyatni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli, maqsadli tashkil etishga xizmat qiluvchi tadbirlar tizimidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi - kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodni ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish, har tomonlama etuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish, insonparvarlik, poklik, ezgulik bag'rikenglik, iymonlilik hamda kuchli e'tiqodli etib tarbiyalashga, ma'naviy dunyoqarashi shakllantirishga qaratilgan. Shu boisda barcha ta'lim muassasalarida jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazishi, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bolaga ta'limiy faoliyatlarda olgan bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Bola milliy ruhda, qadriyatlarimizni his etgan holda ulg'a boshlaydi va shu bilan bir qatorda bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal suratda o'sib, takomillashib boradi. Bola borliqni anglay boshlaydi, tengdoshlari bilan ijobiy aloqaga kirisha boshlaydi, jamoaviy ishlashga o'rganadi, atrofni kuzatadi, tahlil qila boshlaydi, unda savollar tug'ila boshlaydi. Bola shu tariqa ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy ruhda shakllanib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ma'naviy tarbiya berishda tadbirlarning o'rni muhim sanaladi.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish, sifatli o'qitish va maktab ta'limiga tayyorlash maqsadida "Ilk qadam" va "Ilm yo'li" davlat o'quv dasturlari yaratildi. Bu dasturlarning to'laqonli amaliyotga joriy etish maqsadida didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llanmalar, o'yinchoqlar va har xil turdagi sport inventarlari ta'lim tashkilotlariga etkazib berildi. Maqsad - ta'lim-tarbiya jarayonida o'rili foydalanish orqali ta'lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, optimallashtirishdan iboratdir.

Ta'limiy, tarbiyaviy faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish maqsadida "Mahorat maktabi" faoliyati yo'lga qo'yilgan. "Mahorat maktabi" ning yo'lga qo'yilishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga turtki bo'lmoqda. Bu maktabning faoliyati o'quv-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini faoliyatda o'rinli qo'llash, ilg'or tajribalarni topish va ular faoliyatini ommalashtirish orqali maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha maqsadli, samarali ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

2023-yil davomida "Mahorat maktabi" ish rejasi asosida:

- "Eng yaxshi didaktik materiallar"
- "Eng yaxshi milliy o'yinchoqlar"
- "Eng yaxshi ertak qahramonlari"
- "Eng yaxshi tarixiy obida"

ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ochiq eshiklar kuni" belgilangan tartib asosida tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda ta'lim-tarbiyada milliylikni singdirish maqsadida "Zumradoylar davrasida" nomli ko'rik-tanlovlar tashkil etilib kelinmoqda.

MTTlarda faoliyati yo'lga qo'yilgan "Zumradoylar davrasi" to'garagi qiz bolalarda mehnatsevarlik, to'gari so'zlik, rostgo'ylik, kamtarlik, do'stlariga, yaqinlariga, qarindoshlariga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lishga, sog'lom turmush tarzini tarbiyalashga qaratilgan. Shu bilan birga to'garakda bolalar ota-onasini ko'maklashish, ilm olishga qiziqish, bo'sh vaqtini bekor o'tkazmaslik, tozalikka rioya qilish, kattalar oldida odob saqlash, pazandalikdan ilk saboqlar olish kabi qator axloq odob qoidalarini o'rganishadi.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi to'garaklar, tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bolalarni ma'naviy tarbiyalash uchun xizmat qiladi va ma'naviy-axloqiy tarbiyada samarali foydalanishning muhim sharti sifatida qaraladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi faoliyatning mazmunan milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, boy merosimiz bilan uyg'un holda shuningdek zamonaviy shakllar va interaktiv uslublar asosida tashkil etilishiga ham bog'liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ -4307-son qarori.

3. “Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”. T.:2009. G‘.G‘ulom nashryoti.

4. A.Aliev “Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat” T.: Akademiya-2007.

5. R.Ergashova “Kasb-hunar ta’limi muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarish” T.:2008.

6. Nosirov O‘.Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish. Uslubiy qo‘llanma, toshkent-2010.